

**Mirzaxonova Ozoda Murodulla qizi**

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi

**Annatsiya:** Hozirgi kunda barcha fanlar bo'yicha o'ziga xos o'qitish usullari ishlab chiqilmoqda. Bu judayam quvonarli holat, chunki bu nafaqat o'qituvchini mavzuni tushuntirishiga, balki o'quvchi o'sha darsni yaxshiroq va osonroq o'zlashtirishiga ham yaqindan yordam beradi. Biz ham ushbu maqolada hozirgi kunda biologiya fanini o'qitish bo'yicha olib borilayotgan va qo'llanayotgan zamonaviy hamda eng ommabop metodlari bilan tanishtirishga harakat qilamiz. Bundan tashqari hozirgi o'rta ta'lim tizimida o'quv samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilayotgan interfaol usullar va pedagogik texnologiyalar haqida ham fikr yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Hujayra, biologik tushuncha, metod, usul, moddalar va energiya almashinuvi, odam genetikasi, irsiyat, o'zgaruvchanlik.

**Abstract:** Currently, unique teaching methods are being developed in all subjects. This is a very gratifying situation, because it not only helps the teacher to focus on the subject, but also helps the student to master the lesson better and easier. In this article, we will try to introduce the modern and most popular methods of teaching biology. In addition, we will also think about the interactive methods and pedagogical technologies used in the current secondary education system to improve educational efficiency.

**Key words:** Cell, biological concept, method, method, substance and energy metabolism, human genetics, heredity, variability.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir.

Metod so'zi umumiy ma'noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O'qitish metodlari tom ma'noda o'qituvchining bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olish usulidir. Didaktikada o'qitish metodlari quyidagi metodologik va nazariy qoidalarga asosan ta'riflanadi: O'qitish metodi o'qitish jarayonining o'ziga xos pedagogik sharoitida obektiv reallikni bilish metodlarining ifodasi sanaladi, ya'ni o'qitish metodlari yordamida o'quvchilarning bilish faoliyati tashkil etiladi va boshqariladi. O'qitish metodlari o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag'batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. O'qitish metodlari yagona ta'lim jarayonining ikkita subekti bo'lgan o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, hamkorligini ta'minlovchi faoliyat usulidir. O'qitish metodlari o'qitishning moddiy vositalari bo'lgan darslik, ko'rgazmali, didaktik va tarqatma materiallar bilan uzviy bog'langandir. O'qitish metodlari aniq o'qitish usullaridan tarkib topadi va pedagogik jarayonda qo'llaniladi. O'qitish metodlari o'zaro bog'langan faoliyat usullari sifatida darsning barcha bosqichlari, tashkiliy qism, o'quvchilarning bilish motivlarini faollashtirish, yangi mavzuni

o'rganish, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, uy vazifasini berishda foydalaniladi.

Darsda o'qitish metodlari doimo muayyan birikma holda qo'llaniladi. Darsning har bir bosqichida metodlarning u yoki bu birikmalaridan foydalaniladi. Mazkur bosqichdagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi metod ustunlik qiluvchi yetakchi tizim hosil qiluvchi metod hisoblanadi, qolgan metodlar unga bo'ysunadi. Biologiyani o'qitishda aksariyat hollarda ko'rgazmali metod yetakchi o'rinni egallaydi, boshqa metodlar unga bo'ysunadi yoki singib ketadi. Taniqli didaktik olim Y.K. Babanskiy o'qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratgan:

- O'qitishning og'zaki metodlari (hikoya, suhbat, o'quv ma'ruzasi).
- O'qitishning ko'rgazmali metodlari.
- O'qitishning amaliy metodlari.
- O'qitishning muammoli-izlanish metodlari.
- O'qitishning mantiqiy metodlari.
- Mustaqil ishlash metodlari.
- O'qitishda o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari.
- O'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Hozir ayrim metodlar bilan, ularning vazifasi va qo'llash qonun-qoidalari bilan tanishtirib o'tamiz.

Birinchi tanishtirmoqchi bo'lgan va eng ko'p qo'llaniladigan metodimiz bu hammamizga tanish bo'lgan *"Aqliy hujum"* metodi hisoblanadi. Mazkur metod biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. *"Aqliy hujum"* metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalariga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga yoki "pinbord" doskasiga mahkamlanadi. *"Aqliy hujum"* metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatishga imkon yaratiladi.

*"Aqliy hujum"* metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish mumkin bo'ladi, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ularda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

*"Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:*

- Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yganda, bu metod darsning mavzuning kirish qismida amalga oshiriladi.
- Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

• O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

*“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar*

- Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
- Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.

*Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan:*

- a) Muammoli savol beriladi;
- b) Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi;
- c) Fikr va g‘oyalar guruhlanadi;
- d) Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi;

*“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

- a) Ta‘lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi;
- b) Ta‘lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
- c) Ta‘lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari rangli qog‘ozlarga yoki doskaga to‘planadi;
- d) Yuqorida aytilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

*“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:*

- a) Natijalar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli fikr-mulohazalarning shakllanishiga olib keladi;
- b) Ta‘lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- c) Fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- d) Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- e) Ta‘lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘onadi.


*“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:*

- a) Ta‘lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- b) Ta‘lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Bu kabi metodlar talaygina, biz faqat metod va uning mohiyati, hamda misol sifatida “Aqliy hujum” metodini keltirib tushuntirib berishga harakat qildik. O‘quvchilar uchun bu kabi texnologiyalarning o‘ylab topilishi dars jarayonini osonlashishiga va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Hozirgi kunda turli o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy elementlarni o‘rgatuvchi turli maqolalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ta‘lim jarayonidagi metodlar o‘qituvchi faoliyatini belgilovchi holatdir. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi tavsiyalar har bir o‘qituvchi uchun zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T.: O'z MU. 2003.
- N.M.Verzilin, M.Korsunskaya "Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi", "O'qituvchi" 1983y.
- <https://biologiya.edu.uz>
- <http://portal.guldu.uz>
- <https://azkurs.org>



C

M

R

T